



DEDOLLARIZATSIYA VA MILLIY VALYUTA BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI FACTORS ENSURING DE-DOLLARIZATION AND NATIONAL CURRENCY STABILITY

**¹Sapayev Maxsudbek
Karimovich**

¹Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
"Biznes va boshqaruv" kafedrası dotsenti v.b., PhD.
E-mail: sapayev_maxsudbek@urdu.uz

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada dedollarizatsiya va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash zaruriyati, o'ziga xos xususiyatlari va ularni amalga oshirish omillari yoritilgan. Shuningdek, dedollarizatsiya va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash omillarining ilmiy-nazariy tadqiqi yuzasidan xulosa yoritilgan.

Eng. - This article discusses the need for de-dollarization and ensuring the stability of the national currency, its specific features and factors for their implementation. It also provides a conclusion on the scientific and theoretical study of the factors for ensuring the stability of the national currency.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *dedollarizatsiya, valyuta, barqarorlik, milliy valyuta barqarorligi, omil, tadqiqot.*
❖ *de-dollarization, currency, stability, stability of the national currency, factor, research.*

Kirish.

Dedollarizatsiya iqtisodiyotda xorijiy valyutalardan, ayniqsa AQSh dollaridan jamg'arish, hisob-kitob qilish, kreditlashtirish va narx belgilash vositasi sifatida foydalanish ulushini kamaytirib, milliy valyutaning iqtisodiy munosabatlardagi rolini oshirish jarayonini aks ettiradi. Ushbu tushuncha milliy valyutaning ichki va tashqi barqarorligini kuchaytirish, pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish va moliyaviy tizimning valyuta xavflarini kamaytirish bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki dedollarizatsiyani faqat aholi qo'lidagi naqd dollar miqdorining kamayishi sifatida tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushuncha bank depozitlari, kreditlar, korxonalarning tashqi qarzlari, shartnomalar, aktivlar va majburiyatlarning

ma'lum bir valyutada shakllanayotgani bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Dedollarizatsiya va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash omillarini tadqiq qilish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarda milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati o'rne, respublikada milliy valyutani mustahkamlashda so'mning xarid quvvatini oshirish, barqarorligini ta'minlash hamda aholining turmush darajasini yaxshilash kabi masalalar yoritilgan [1]. Bu esa bevosita so'mning xarid quvvatining dedollarizatsiyaga ta'sirini belgilaydi. Yana bir tadqiqotda so'nggi yillarda ko'pgina mamlakatlar tomonidan

global iqtisodiyotni dedollarizatsiya (dollarsizlantirish) bo'yicha global siyosatning yanada kuchaytirilganligi aniqlangan [2]. Mazkur holat milliy iqtisodiyotlar o'z moliyaviy tizimlarini dollarlarning "nazoratsiz" oqimidan himoya qilishga urinib, milliy valyutalarda hisob-kitoblarga o'tayotganliklarida namoyon bo'ladi.

Olib borilgan boshqa tadqiqotlarga asosan, xalqaro to'lov munosabatlarining xilma-xilligi va raqamli to'lov tizimlarining paydo bo'lishi global to'lov tizimining dedollarizatsiyaga olib kelishi mumkinligi asoslanadi [3]. Shunga asosan, dedollarizatsiya jarayonining aksi bo'lgan markazlashtirilmagan raqamli valyutalarning AQSh dollariga bog'liqligini oshirish usullari mavjudligi ko'rib chiqiladi. Yana bir tadqiqotda dedollarizatsiyani rag'batlantiruvchi asosiy siyosat mazmuni aks ettirilgan [4]. Xususan, bu tadqiqotda uzoq muddatli dedollarizatsiya ishonchli deinflyatsiya rejasi va aniq mikroiqtisodiy choralarga bog'liq bo'ladi.

Undan tashqari, boshqa bir tadqiqotning dolzarbligi global pul-kredit va moliyaviy arxitekturaning o'sib borayotgan o'zgarishi va o'rnatilgan dollar hukmronligiga mos variantlarni izlashdan kelib chiqadi [5]. Unga binoan, sanksiyalar ta'siri va global qiymat zanjirlarini qayta formatlash sharoitida dedollarizatsiya masalasi milliy iqtisodiy xavfsizlik va Rossiyaning moliyaviy suvereniteti uchun zarur bo'ladi. Yana bir manbaga ko'ra, dedollarizatsiya global savdo va moliyaviy sohada dollardan foydalanishning barqaror pasayishini aks ettiradi [6]. Ya'ni, ushbu jarayon qisqa muddatli va foiz stavkalarining o'zgarishi, xavf-xatar va o'sish farqlari kabi omillar ta'sirida bo'lgan daromadlilikning siklik ko'rsatkichlaridan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llanilgan usullardan foydalanildi. Bu borada maqolada

dedollarizatsiya va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash omillarini tadqiq qilish yuzasidan mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, iqtisodiyotda dollarlashuvning yuqori darajasi aholi jamg'armalarining katta qismi xorijiy valyutada saqlanishi, bank kreditlarida xorijiy valyuta ulushining yuqoriligi, eksport-import operatsiyalarida milliy valyutadan foydalanish darajasining pastligi, tovarlar va xizmatlar narxlarining dollarga bog'lab belgilanishi aholi va biznesning milliy valyutaga nisbatan ishonchi past bo'lishi hamda inflyatsiya va devalvatsiya xavfi yuzasidan yuqori kutilmalarning shakllanishi kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Shu bois, dedollarizatsiyaning asosiy maqsadi dollarni iqtisodiyotdan butunlay chiqarib yuborish emas, ya'ni milliy valyutaning ichki hisob-kitob, jamg'arish va investitsiya qilishdagi tabiiy ustuvorligini ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, dollarlashuv iqtisodiyotda qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida shakllanadi.

- yuqori inflyatsiya. Milliy valyutadagi aktivlar o'z qiymatini tez yo'qotsa, aholi va korxonalar boylikni saqlash maqsadida xorijiy valyutaga o'tishi mumkin. Shu bois, inflyatsiya darajasi va inflyatsion kutilmalar dollarlashuv omili bo'lib hisoblanadi.

- milliy valyutaga ishonch. Aholi milliy valyutaga qanchalik ko'p ishonsa, depozit, obligatsiya va boshqa moliyaviy aktivlarni milliy valyutada saqlashga moyillik shunchalik yuqori bo'ladi. Aksincha, valyuta kursi keskin o'zgarishi yoki inflyatsiya yuqori bo'lishi milliy valyutaga ishonchni pasaytirishi mumkin.

- valyuta kursi bo'yicha kutilmalar. Agar aholi va tadbirkorlar milliy valyuta kelajakda sezilarli qadrsizlanadi, deb hisoblasa-da, ular xorijiy valyutada aktivlarni shakllantirishga

harakat qiladi. Ushbu holat "o'zi-o'zini kuchaytiruvchi" valyuta kutilmalarini vujudga keltirishi mumkin.

- valyutada daromad va xarajatlarning nomutanosibligi. Eksport qiluvchi korxonalar xorijiy valyutada tushum olishi, import qiluvchi korxonalar esa xorijiy valyutada to'lov qilishi mumkin. Natijada, aktivlar va majburiyatlarning valyuta tarkibi ahamiyat kasb etadi.

- moliya bozorining rivojlanganlik darajasi. Milliy valyutada uzoq muddatli, barqaror va jozibador moliyaviy instrumentlar yetarli bo'lmasa-da, aholi va biznes xorijiy valyutadagi aktivlarni muqobil variant sifatida qabul qilishi mumkin.

Shuningdek, dedollarizatsiya jarayonlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- depozitlar dedollarizatsiyasi. Banklarda milliy valyutadagi omonatlar jozibadorligini oshirish orqali aholi va korxonalarning jamg'armalarini so'mda saqlashga rag'batlantirish;

- kreditlar dedollarizatsiyasi. Daromadi so'mda shakllanadigan qarz oluvchilar uchun xorijiy valyutada kredit olish valyuta xavfini oshiradi. Shu bois, milliy valyutada kreditlashtirishni kengaytirish moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi;

- narx belgilash dedollarizatsiyasi. Ichki bozorda tovarlar va xizmatlar narxlarini milliy valyutada belgilash milliy valyutaning iqtisodiy rolini kuchaytiradi;

- moliyaviy bozor dedollarizatsiyasi. Milliy valyutada obligatsiyalar, depozit sertifikatlar, investitsiya vositalari va boshqa moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish aholi uchun so'mda jamg'arish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- tashqi savdo hisob-kitoblarini diversifikatsiya qilish. Xalqaro savdoda faqat bitta xorijiy valyutaga bog'liqlikni kamaytirish va milliy valyutalardagi hisob-kitob mexanizmlarini rivojlantirish valyuta xavflarini pasaytirishga xizmat qiladi.

Shular bilan bir qatorda, O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy valyutaga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, iqtisodiyotda xorijiy valyutaga qaramlikni kamaytirish hamda bank tizimida dedollarizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish, so'mdagi depozit va kredit mahsulotlarining jozibadorligini kuchaytirish, valyuta risklarini cheklash hamda milliy valyutada hisob-kitoblar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yildan 2026-yilgacha bank tizimida xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi qariyb 50 foizdan 20 foiz atrofida darajagacha kamaygan, kreditlar dollarizatsiyasi esa taxminan 54 foizdan 37 foizgacha pasaygan.

Mazkur tendensiya bank tizimida milliy valyutadagi moliyaviy instrumentlardan foydalanish ko'lamini kengayotganini va iqtisodiy subyektlarning so'mda jamg'arish hamda kreditlashga bo'lgan moyilligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, dollarizatsiya darajasining pasayishi valyuta kursi tebranishlaridan kelib chiqadigan moliyaviy xatarlarni kamaytirish, banklar balansida valyuta nomutanosibligini cheklash va pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmining samaradorligini oshirish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Markaziy bank ushbu o'zgarishlarni faqat qisqa muddatli siklik tebranish sifatida emas, balki milliy valyutaga bo'lgan ishonchning bosqichma-bosqich va tarkibiy jihatdan mustahkamlanib borayotganini ifodalovchi jarayon sifatida baholamoqda.

2026-yil 1-yanvar holatiga bank tizimida jami depozitlar 417 258 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, shundan 87 336 mlrd. so'mi xorijiy valyutadagi depozitlarga to'g'ri kelgan. Demak, xorijiy valyutadagi depozitlarning ulushi taxminan 21 foizni tashkil etgan. Ushbu sanada kredit portfeli 604 002 mlrd. so'm bo'lib, xorijiy valyutadagi kreditlar

236 785 mlrd. so'm, ya'ni qariyb 39 foizni tashkil qilgan. 2026-yil 1-aprel holatiga kelib, depozitlarda xorijiy valyuta ulushi taxminan 20 foiz va kreditlarda esa 40 foiz atrofida bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat bank

tizimida dedollarizatsiya jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi. Bu borada 2020–2025-yillar kesimida dedollarizatsiya va milliy valyuta barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval

2020–2025-yillarda O'zbekistonda dedollarizatsiya va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
<i>Inflyatsiya darajasi, %</i>	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8	7,3
<i>Markaziy bank asosiy stavkasi, %</i>	14,0	14,0	15,0	14,0	13,5	14,0
<i>Eksport hajmi, mlrd. AQSh dollari</i>	11,0	11,2	11,9	16,6	19,7	23,0
<i>Import hajmi, mlrd. AQSh dollari</i>	19,0	21,0	28,2	29,6	35,3	47,4
<i>Tashqi savdo aylanmasi, mlrd. AQSh dollari</i>	30,1	32,6	40,0	46,3	65,9	81,8
<i>Depozitlar dollarizatsiyasi, %</i>	45,1	38,9	35,8	30,4	29,0	24,0
<i>Kreditlar dollarizatsiyasi, %</i>	49,3	47,7	46,0	43,6	41,5	39,0
<i>So'mning AQSh dollariga nisbatan yillik o'zgarishi, %</i>	-12,9	-3,4	-3,8	-9,8	-4,7	+6,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020–2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida dedollarizatsiya jarayoni bosqichma-bosqich kuchaygan. Mazkur jarayon, avvalo, bank depozitlari va kreditlari tarkibida xorijiy valyutaning ulushi qisqarishi bilan namoyon bo'lgan. Xususan, 2020-yilda depozitlarning qariyb 45,1 foizi, kreditlarning esa 49,3 foizi xorijiy valyutada shakllangan. 2025-yilga kelib depozitlar dollarizatsiyasi taxminan 24 foizgacha, kreditlar dollarizatsiyasi esa 39 foizgacha pasaygan. Ushbu holat iqtisodiyotda milliy valyutadagi moliyaviy instrumentlarga bo'lgan ishonch va talabning ortib borayotganini ko'rsatadi. Dedollarizatsiyaga ta'sir etuvchi omil bo'lib inflyatsiya darajasining pasayishi hisoblanadi.

2022-yilda inflyatsiya 12,3 foizgacha ko'tarilgan bo'lsa-da, 2023-yilda 8,8 foizgacha tushgan. 2024-yilda 9,8 foizni tashkil etgan inflyatsiya 2025-yilda 7,3 foizgacha pasaygan.

Shuningdek, Markaziy bankning foiz siyosati ham dedollarizatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu borada 2022-yilda asosiy stavkaning 15 foizgacha oshirilishi inflyatsion ta'sirni cheklash va milliy valyutadagi moliyaviy aktivlarning jozibadorligini oshirishga qaratilgan. Keyingi yillarda asosiy stavkaning 13,5–14 foiz atrofida shakllanishi pul-kredit sharoitlarining nisbatan barqarorlashganligini ko'rsatadi. Milliy valyuta barqarorligining yana bir muhim omili eksport tushumlarining o'sishida namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, 2020-yilda eksport hajmi qariyb

11 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa-da, 2025-yilda bu ko'rsatkich 23 mlrd. AQSh dollariga yaqinlashgan.

Milliy valyuta barqarorligi esa milliy pul birligining ichki va tashqi qiymatining keskin o'zgarishlarsiz saqlanishini aks ettiradi. Ushbu barqarorlik quyidagi asosiy jihatlarga ega bo'ladi:

- ichki barqarorlik. Milliy valyuta ichki bozorda tovarlar va xizmatlarning narx o'sishiga nisbatan o'z xarid qobiliyatini saqlashi kerak. Bu esa inflyatsiyaning past va barqaror bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi.

- tashqi barqarorlik. Milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursida keskin va asossiz tebranishlarning oldini olish lozim. Shu bilan birga, kursni sun'iy ravishda doimiy ushlab turish emas, ya'ni bozor omillari ta'siriga moslashish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy valyuta barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

- 1) Inflyatsiyani pasaytirish. Milliy valyuta barqarorligi sharti inflyatsiyani nazorat qilishga asoslanadi. Inflyatsiya qanchalik past va prognoz qilinadigan bo'lsa, milliy valyutada jamg'arishga ishonch shunchalik yuqori bo'ladi. O'zbekistonda yillik inflyatsiya 2025-yil dekabrda 7,3 foizni tashkil etgan. 2026-yil iyunida esa yillik inflyatsiya 6,4 foizga tushgan. Inflyatsiyaning pasayishi milliy valyutaning real xarid qobiliyatini saqlash va aholi inflyatsion kutilmalarini yaxshilash uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

- 2) Samarali pul-kredit siyosati. Markaziy bank foiz stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxiralar va boshqa monetar instrumentlar orqali pul massasi va kredit faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. 2025-yilda XVJ O'zbekiston Markaziy bankiga inflyatsiya 5 foizlik maqsadga yaqinlashgunga qadar nisbatan qat'iy pul-kredit siyosatini saqlashni tavsiya qilgan.

- 3) Valyuta zaxiralari. Markaziy bankning xalqaro zaxiralari tashqi shoklarga qarshi

muhim himoya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Zaxiralar import to'lovlarini ta'minlash, valyuta bozoridagi keskin tebranishlarni yumshatish va tashqi moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. 2025-yil 1-noyabr holatiga O'zbekistonning rasmiy rezerv aktivlari 59,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

- 4) Eksport salohiyati. Eksport tushumlarining o'sishi mamlakatga xorijiy valyuta oqimini ko'paytirib, tashqi to'lov qobiliyatini kuchaytiradi. Eksportning diversifikatsiya qilinishi esa bitta yoki bir nechta tovarga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytiradi.

- 5) To'lov balansi. Eksport va import, xizmatlar, transfertlar va kapital harakatlari milliy valyutaga ta'sir qiladi. Joriy hisob taqchilligining barqaror va boshqariladigan darajada bo'lishi tashqi valyuta bosimini kamaytiradi. XVJ ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 2025-yilda joriy hisob taqchilligi YaIMga nisbatan 3,9 foizgacha qisqargan. Bunda tovarlar va xizmatlar eksporti hamda pul o'tkazmalari o'sishi muhim rol o'ynagan.

Bank tizimida dollarlashuvning yuqori bo'lishi ikki tomonlama valyuta xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, bank xorijiy valyutada depozit jalb qiladi va mijoz milliy valyutada daromad oladi. Ammo, kredit xorijiy valyutada beriladi. Mazkur holatda kurs keskin o'zgarsa, qarz oluvchining qarz yuki ortib ketishi mumkin. Shu bois, bank tizimida "valyuta mosligi" tamoyiliga rioya qilish lozim. Ya'ni aktivlar va majburiyatlar valyutasi o'rtasidagi nomutanosiblik katta bo'lsa, valyuta xavfi shunchalik yuqori bo'ladi. O'zbekistonda banklarning xorijiy valyutadagi majburiyatlariga nisbatan zaxira talablari va ochiq valyuta pozitsiyalari bo'yicha prudensial choralar qo'llanadi. Ammo, milliy valyuta barqarorligida yuqori inflyatsiya milliy valyuta xarid qobiliyatini pasaytiradi va salbiy inflyatsion kutilmalar aholini xorijiy valyutaga o'tishga undaydi. Importning jadal o'sishi valyutaga bo'lgan talabni oshiradi va

eksportning pasayishi valyuta tushumini qisqartiradi. Tashqi qarz yukining yuqoriligi tashqi to'lovlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Kapital chiqib ketishi mamlakatda xorijiy valyutaga talabni kuchaytirishi mumkin.

Dedollarizatsiya ma'muriy taqiqlar orqali emas, ya'ni birinchi navbatda milliy valyutadagi aktivlarning iqtisodiy jozibadorligini oshirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Buning uchun inflyatsiyani barqaror pasaytirish, pul-kredit siyosatiga ishonchni oshirish, milliy valyutada jamg'arish vositalarini kengaytirish, banklarda so'mdagi depozit mahsulotlarini rivojlantirish, milliy valyutada kreditlashni rag'batlantirish, valyuta xavflarini xedjirlash instrumentlarini rivojlantirish, korporativ obligatsiyalar va davlat qimmatli qog'ozlari bozorini chuqurlashtirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, banklarning valyuta riskini samarali boshqarish va valyuta bozorida shaffoflikni ta'minlash zarur.

Xulosa va takliflar.

Dedollarizatsiya milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning unsuri sifatida

inflyatsiyani pasaytirish, aholining milliy valyutaga ishonchini oshirish, bank tizimida so'mdagi depozit va kreditlar ulushini ko'paytirish hamda moliyaviy bozorni chuqurlashtirish bilan bevosita bog'liq. Milliy valyuta barqarorligi esa birgina valyuta kursi bilan belgilanmaydi. Ushbu barqarorlik asosida narxlar barqarorligi, samarali pul-kredit siyosati, yetarli xalqaro zaxiralar, muvozanatli tashqi sektor, barqaror bank tizimi va iqtisodiy agentlarning ishonchi yotadi. O'zbekiston misolida bank tizimida xorijiy valyutadagi depozitlar ulushining 2018-yildan 2026-yilgacha qariyb 50 foizdan 20 foiz atrofiga pasayishi dedollarizatsiyaning sezilarli kuchayganini ko'rsatadi. 2026-yilda inflyatsiyaning 6,4 foizgacha pasayganligi makroiqtisodiy muhitda milliy valyuta barqarorligi uchun ijobiy omil bo'lib hisoblanadi. Shu bois, istiqbolda dedollarizatsiyaning asosiy vazifasi xorijiy valyutani iqtisodiy munosabatlardan sun'iy ravishda siqib chiqarish emas, ya'ni milliy valyutani ishonchli jamg'arish, hisob-kitob va investitsiya vositasiga aylantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akilov M. S. O'zbekistonda milliy valyuta barqarorligini ta'minlash // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2019. – № 1 (39). – B. 1–7.
2. Горда А. С. Дедолларизация мировой экономики: причины, проявления, последствия // *Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции*. – 2024. – № 1 (66). – С. 52–63. – DOI: 10.29039/2312-5330-2024-1-52-63.
3. Оришак А. В. Потенциал дедолларизации мировой валютной системы в условиях роста гетерогенности международных платежных отношений: дис. ... канд. экон. наук: 5.2.5 / А. В. Оришак. – Москва: Дипломатическая академия МИД России, 2025. – 170 с.
4. Kokenyne A., Ley J., Veyrune R. Dedollarization // *IMF Working Paper*. – 2010. – No. 10/188. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2010. – 50 p. – DOI: 10.5089/9781455202225.001.
5. Прокопенко Б. И., Павлова С. В. Дедолларизация мировой экономики: предпосылки, инструменты и перспективы // *Экономические науки*. – 2025. – № 10 (251). – С. 175–185. – DOI: 10.14451/1.251.175.
6. J.P. Morgan Global Research. De-dollarization: Is the US dollar losing its dominance? – 2026. – URL: <https://www.jpmorgan.com/insights/global-research/currencies/de-dollarization>